



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**XORAZM VILOYATINING  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO  
TOVAR AYLANMASI**


*Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 62-224-65-09**

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **6 226** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **85** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **6 141** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida 2024- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **844,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan **109,5** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **58,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **77,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **786,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **113,0** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **169,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **127,9** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>844,3</b>	<b>109,5</b>
Urganch sh.	261,0	113,2
Xiva sh.	37,1	104,9
Bog'ot	47,1	106,8
Gurlan	61,6	111,3
Qo'shko'pir	46,7	109,5
Urganch	96,1	103,2
Hazorasp	86,6	111,9
Tuproqqal'a	18,5	106,2
Xonqa	48,4	107,2
Xiva	30,8	103,2
Shovot	57,7	114,9
Yangiariq	31,3	103,9
Yangibozor	21,3	109,8


2024- yilning yanvar oyida 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Shovot tumani (**114,9** %), Urganch shahri (**113,2** %), Hazorasp tumani (**111,9** %), Gurlan tumanida (**111,3** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **131,4 %** ni tashkil qildi.

## 2023- yilning fevralidan 2024- yilning fevraligacha qadar chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **30,9** % bilan **261,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqal'a tumanida **2,2** % bilan **18,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*





## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **786,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan **13,0** % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,1** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan **22,6** % ga kamaydi va **58,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,9** % ulushiga to'g'ri keldi.



115,2

Urganch

115,5

Shovot

116,2

Qo'shko'pir

116,7

Urganch sh.

125,0

Xiva

## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

135,9

Hazorasp

164,6

Tuproqqal'a


2,2 m.

Yangibozor


2,6 m.

Bog'ot

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (**99,8 %**), Yangiariq (**99,6 %**), Gurlan va Qo'shko'pir (**99,4 %**) tumanlari mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **6,9 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (**15,4 %**), Xiva shahri (**7,4 %**), Xiva tumani (**6,6 %**) hamda Hazorasp va Yangibozor tumanida (**5,2 %**) kuzatildi.

**6,9 %**



**93,1 %**




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **427,1** ming so'mni (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan **107,5** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**1 722,7** ming so'm), Urganch (**454,8** ming so'm) va Hazorasp (**424,5** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>169,9</b>	<b>127,9</b>
Urganch sh.	29,9	147,5
Xiva sh.	7,9	131,2
Bog'ot	20,4	111,6
Gurlan	22,2	127,3
Qo'shko'pir	20,4	130,0
Urganch	-	-
Hazorasp	20,2	125,2
Tuproqqal'a	2,1	114,2
Xonqa	10,0	132,3
Xiva	-	-
Shovot	28,7	126,3
Yangiariq	5,0	119,1
Yangibozor	3,3	118,6


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi  
o'sish sur'atlari  
(2024- yil yanvar)



Hududlar kesimida uyushmagan  
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm  
(2024- yil yanvar)














Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **169,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan **127,9** % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **75,2** mlrd. so'mni (**138,1** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **94,7** mlrd so'mni tashkil etdi (**120,9** %).













2024- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **75,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**32,8** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>32,8</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>43,7 %</b></p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>12,6</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>16,7 %</b></p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>8,5</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>11,3 %</b></p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>3,5</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>4,7 %</b></p>	<p><b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>1,8</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>2,4 %</b></p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>2,0</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>2,7 %</b></p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>1,0</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>1,3 %</b></p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>1,9</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>2,5 %</b></p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>4,8</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>6,4 %</b></p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>1,0</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>1,3 %</b></p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>0,5</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>0,6 %</b></p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>4,8</b> mlrd. so'm</p> <p><b>6,4 %</b></p>

2024- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **94,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **85,5** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **8,6** mlrd. so'mni, parrandalar – **0,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>46,1</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>48,7 %</b></p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>26,5</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>28,0 %</b></p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>12,9</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>13,7 %</b></p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>7,4</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>7,9 %</b></p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>1,1</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>1,2 %</b></p>	<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>0,3</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>0,4 %</b></p>
<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,3</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>0,3 %</b></p>	<p><b>Quyonglar</b></p> <p><b>0,01</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>0,01 %</b></p>	<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,001</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>0,001 %</b></p>
<p><b>Otlar</b></p> <p><b>0,0</b> mlrd. so'm</p>  <p><b>0,0%</b></p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 423** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 422** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>25,9</b>	<b>108,9</b>
Urganch sh.	12,2	109,0
Xiva sh.	1,4	107,8
Bog'ot	0,8	108,1
Gurlan	0,7	109,4
Qo'shko'pir	0,3	106,9
Urganch	4,6	108,7
Hazorasp	1,2	110,6
Tuproqqal'a	0,6	109,3
Xonqa	0,6	108,7
Xiva	0,7	109,4
Shovot	1,6	108,1
Yangiariq	0,4	107,9
Yangibozor	0,8	110,0

2024- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **25,9** mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **8,9** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **99,9** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>368,2</b>	<b>100</b>
Urganch sh.	331,8	90,1
Xiva sh.	2,4	0,7
Bog'ot	3,9	1,1
Gurlan	5,5	1,5
Qo'shko'pir	1,1	0,3
Urganch	3,6	1,0
Hazorasp	8,6	2,3
Tuproqqal'a	1,5	0,4
Xonqa	6,7	1,8
Xiva	0,4	0,1
Shovot	0,6	0,2
Yangiariq	1,6	0,4
Yangibozor	0,4	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**331,8** mlrd. so'm), Hazorasp (**8,6** mlrd. so'm) va Xonqa (**6,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (mlrd. so‘m)



2024- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) **368,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **10,6** foizga ko‘paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **197,8** mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati – **117,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **170,4** mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati – **103,6** %) tashkil qildi.


### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **386,5** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **7,5** % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi

11,2 %

43,1 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

88,8 %

343,4 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **343,4** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **111,6** % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **88,8** % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 295** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **33** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 262** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Urganch shahri (**120,2** %) va Shovot tumanida (**116,1**%) kuzatildi.

	<b>Jami mlrd. so'm</b>	<b>2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>386,5</b>	<b>107,5</b>
Urganch sh.	230,0	120,2
Xiva sh.	12,3	108,9
Bog'ot	1,9	43,6
Gurlan	11,1	105,5
Qo'shko'pir	4,8	107,5
Urganch	54,6	74,0
Hazorasp	4,8	112,7
Tuproqqal'a	5,7	110,5
Xonqa	10,8	105,6
Xiva	26,4	114,5
Shovot	7,0	116,1
Yangiariq	12,0	115,1
Yangibozor	5,1	110,6